



## ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLASHTIRILISHI (E-ADVOCACY) VA SIR SAQLASH MAJBURIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20635578>

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-kurs B potok talabasi

**Raupov Jamshedjon Shahobiddin o'gli**

**Annotatsiya:** Hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda texnologik mahsulotlar insonlarning ijtimoiy hayotiga tobora chuqur kirib bormoqda. SI mahsulotlarining yaqin 5 yillikdagi evolyutsiyasi ushbu jarayonni tezlashtirilishiga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'plab sohalar allaqachon jismoniy shaklga ega hujjatlarni yuritishdan zamonaviy data markazlarida raqamli ma'lumotlarni saqlashga o'tishni boshlagan. Yuridik soha, jumladan, advokatlik ham bundan istisno emas. Biroq, zamonaviy texnologiyalar negizida advokatlik siri ma'lumotlarining bulutli xotira, ya'ni cloudlarda saqlanishi bir nechta jiddiy savollarni tug'dirmoqda. Tadqiqot davomida aynan ushbu savollarga javob berildi va izlanish davomida dogmatik-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli adabiyotlar sharhi kabi metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida xalqaro va O'zbekiston qonunchiliklari o'zaro taqqoslandi hamda yakunda E-Advocacy tizimini implementatsiya qilish takliflari ko'rib chiqildi. Olimlarning fikrlari o'zaro analiz qilindi va ularning izlanishlaridagi istiqbolli takliflar va kamchiliklar ko'rib chiqildi. Yakunda O'zbekiston qonunchiligidagi uchinchi shaxslar tomonidan advokatlik sirining buzulishiga doir javobgarlik yo'qligi aniqlandi va bunga huquqiy yechim berildi. Buning ustiga, advokatlarining texnik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kichik advokatlik institutlari uchun moddiy ko'mak ko'rsatilishi zarurligi ta'kidlandi hamda bu borada amaliy maslahatlar berildi.

**Kalit** metadata, **so'zlar:** SI, Advokatlik, siri, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik.

**Аннотация:** В современном развивающемся мире технологические продукты все больше проникают в социальную жизнь людей. Не будет преувеличением сказать, что эволюция продуктов информационной безопасности за последние 5 лет ускорила этот процесс. Многие отрасли уже начали переход от хранения физических документов к хранению цифровых данных в современных центрах обработки данных. Юридический сектор,



*включая адвокатуру, не является исключением. Однако хранение адвокатской тайны в облачных хранилищах, то есть в облаках, на основе современных технологий, поднимает ряд серьезных вопросов. На эти вопросы были даны ответы в ходе исследования, в котором использовался обзор догматико-правовой, сравнительно-правовой и систематической литературы. В ходе исследования проводилось сравнение международного и узбекского законодательства, и, наконец, рассматривались предложения по внедрению системы электронной адвокатуры. Были проанализированы мнения ученых, рассмотрены перспективные предложения и недостатки в их исследованиях. В заключение было установлено, что в соответствии с узбекским законодательством отсутствует ответственность за нарушение адвокатской тайны третьими лицами, и предложено правовое решение. Кроме того, была подчеркнута необходимость развития технических навыков юристов и оказания финансовой поддержки небольшим юридическим фирмам, а также даны практические рекомендации в этом отношении.*

**Ключевые слова:** *Адвокатская тайна, цифровизация, метаданные, ИИ, кибербезопасность.*

**Annotation:** *In the current developing world, technological products are increasingly penetrating the social life of people. It is no exaggeration to say that the evolution of SI products over the past 5 years has accelerated this process. Many industries have already begun to transition from maintaining physical documents to storing digital data in modern data centers. The legal sector, including advocacy, is no exception. However, the storage of attorney secret information in cloud storage, that is, in the clouds, based on modern technologies, raises several serious questions. These questions were answered during the study, and a review of dogmatic-legal, comparative-legal and systematic literature was used during the study. During the study, international and Uzbek legislation was compared, and finally, proposals for implementing the E-Advocacy system were considered. The opinions of scientists were analyzed and promising proposals and shortcomings in their research were considered. In conclusion, it was determined that there is no liability for the violation of attorney-at-law secrecy by third parties under Uzbek law and a legal solution was provided. In addition, the need to develop the technical skills of lawyers and provide*



*financial support for small law firms was emphasized, and practical advice was provided in this regard.*

**Key words:** *Attorney-client privilege, digitization, metadata, AI, cybersecurity.*

## KIRISH (INTRODUCTION)

Advokatura instituti ijtimoiy sohaning ajralmas qismlaridan biri bo'lib, bevosita shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashib kelgan. Advokatlik faoliyatida mijozlarning shaxsiy hamda maxfiy ma'lumotlari advokatlik siri bo'lib kelgan hamda bu institut uzoq yillardan beri huquq ustuvorligi va adolat tamoyillarining tarixiy tayanchi bo'lib xizmat qildi. Ammo, yaqin yillardagi texnologik o'zgarishlar advokatlik siri institutining oldiga jiddiy o'zgarishlarni qo'yimoqda. Bugungi kunda advokat va mijoz o'rtasidagi maxfiy ma'lumotlar qulflangan seyflardan bulutli texnologiyalar va shifrlangan raqamli chatlarga ko'chmoqda. Ushbu evolyutsiya yuridik yordam ko'rsatish tezkorligini oshirgan bo'lsa-da, protsessual daxlsizlikning texnik kafolatlari, kiberhujumlar uchun huquqiy javobgarlik subyektini aniqlash hamda elektron orderlar sharoitida litsenziya talablarini qayta ko'rib chiqish kabi dolzarb huquqiy muammolarni kun tartibiga qo'yimoqda.

Advokatura sohasining

raqamlashishi xalqaro maydonda ko'plab konsensuslarga sababchi bo'lmoqda va ko'plab olimlar, jumladan, Aleš Završnik, Koops, Nelson, Waxman kabi olimlart omonidan ushbu masalani huquqiy tartibga solish borasida izlanishlar olib borildi va ushbu izlanishda yuqoridagi olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilingan. Olimlar tomonidan izlanishlar ko'p tomonlama olib borilganligiga qaramay, muayyan huquqiy bo'shliqlar hamon ochiqlicha qolmoqda va ushbu tadqiqotda bu bo'shliqlarga amaliy yechimlar keltirildi. Buning ustiga, izlanish jarayonida xalqaro va O'zbekiston qonunchiligi tahlil qilindi va o'zaro taqqoslandi. Ushbu izlanishda muallif advokatura sohasining raqamlashishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklar hamda ularni qanday huquqiy tartibga solish mumkinligi haqida fikr yuritgan va o'z takliflarini kiritgan.

## Metodlar (METHODS)

Ushbu izlanish doktrinal huquqiy yondashuvga asoslandi hamda Sining cheklangan subyektilik masalasini tartibga soluvchi huquq tizimini istiqbolli tahlilini taqdim etish



imkonini berdi. Quyidagi ishda ushbu metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-huquqiy tahlil - xalqaro qonunchiliklar, shu jumladan CCBE (Yevropa Advokatlar Kengashi) tavsiyalari, IBA (Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi) prinsiplari va mahalliy qonunchilik negizida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2022-yildagi PQ-263-son Qarori o'rganilib chiqildi va o'zaro taqqoslandi.

2. Tizimli adabiyotlar sharhi - ishni tahlil qilish protsessida PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) tamoyillariga tayandi hamda xalqaro ilmiy bazalardan (Scopus,

Web of Science, Google Scholar) foydalanildi hamda 2025-yilgacha bo'lgan davr ichidagi "E-Advocacy" mavzusidagi 10 dan ortiq fundamental ilmiy izlanishlar saralanib olindi.

3. Dogmatik huquqiy tahlil - izlanishda O'zbekiston hamda xalqaro qonunchilik doirasidagi huquqiy bo'shliqlar (legal vacuum) o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining delikt holatlari, ya'ni advokatlik siri buzilganligi uchun majburiyat masalasi sohasi ekstensiv tahlil qilindi.

4. Normativ-prognostik tahlil

- Xalqaro qonunchilik tajribasini O'zbekiston huquq sohasiga tatbiq etish natijalari, salbiy va ijobiy oqibatlari prognoz qilindi. Ushbu tahlilda O'zbekiston qonunchiligining raqamli iqtisodiyot strategiyalari hamda xalqaro tajribalarni integratsiyasiga tayyorgarlik darajalari tahlil qilindi.

Buning ustiga turli xil xalqaro ilmiy jurnallardagi chop etilgan nashrlar ham bevosita tahlil qilinib, tadqiqot natijasi qismida umumiy shaklda barcha manbaalar batafsil yoritildi va kelajak uchun potensial integratsiya takliflari keltirildi.

## Natijalar (RESULTS)

Tadqiqotning asosiy maqsadi bu advokatura sohasining raqamlashish jarayonida uzoq yillardan beri shakllanib kelgan advokat siri va shu kabi institutlarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tahlil qilishdan iborat. Bevosita tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob izlandi:

1. Advokat va mijoz o'rtasidagi raqamli muloqotning protsessual daxlsizligi qanday ta'minlanadi?

2. Advokatlik tuzilmalarining ma'lumotlar bazasiga uyushtirilgan kiberhujumlar oqibatida sirlarning oshkor bo'lishi yuzasidan huquqiy javobgarlik kimga tushadi?

3. Elektron orderlar va masofaviy yuridik xizmat ko'rsatish



sohasidagi litsenziya talablari qanday tartibga solinishi kerak?

Advokatlik instituti ko'plab mamlakatlarda muayyan qonunchilik bilan huquqiy tartibga solingan. Buning ustiga, xalqaro deklarativ normalar, jumladan CCBE (Yevropa Advokatlar Kengashi) tavsiyalari elektron makonda advokatlik sirini qanday saqlash mumkinligi haqida turli xil foydali maslahatlar keltirgan. Jumladan, advokat mijoz bilan elektron pochta orqali muloqot qilayotganida, muayyan xabarlar almashinuv jarayonida doim ma'lumotlarni yangilab turishi lozimligi keltirilgan. Shuningdek, tavsiyalarga ko'ra advokatlar kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldini olish maqsadida profilaktik harakatlarni sodir qilishi lozimligi aytilgan. Shuningdek, advokatlarga ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash maqsadida shifrlash

texnologiyalaridan foydalanish maslahat beriladi. Qo'shimcha tarzda, elektron xatlarga avtomatlashtirilgan maxfiylik ogohlantirishlarini (disclaimer) biriktirish tavsiya etiladi. Bu o'z navbatida xabar adashib yuborilgan hollarda qabul qiluvchini ma'lumotni o'chirib tashlashga chaqiradi va xatolik oqibatida ma'lumot sizib chiqishining oldini olishga yordam beradi. Buning ustiga,

advokatlardan shablon uchun oldingi hujjatlarni ishlatmaslik tavsiya beriladi, zero oldingi hujjatlardagi mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari keyingi mijozning hujjatlarida bayon etilib ketishi mumkin va bu ham o'z navbatida advokatlik sirini buzulishiga olib keladi. Umuman olganda, ushbu YeI ning advokatlik sirini raqamli makonda saqlash bo'yicha tavsiyalarining asosiy mazmuni albatta advokatlarning kiber-gigiyena va metadata tahliliga amal qilgan holda faoliyat yuritishidan iboratdir. Yana bir manba sifatida "IBA International Principles on Conduct for the Legal Profession" (Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasining Advokatlik faoliyati bo'yicha xalqaro prinsiplari) ham tahlil qilindi. Ushbu hujjatning 4-prinsipi bevosita "Maxfiylik/Kasbiy sir" (Confidentiality/Professional secrecy) deb nomlanadi va unda advokat har qanday holatda o'zining oldingi va hozirgi mijozlarining sirlarini muayyan vaqt chegarasisiz maxfiylikini ta'minlovchi barcha zaruriy vositalardan foydalanishi lozimligi, bunga texnologik to'siqlarni vaj keltirish asossiz ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu prinsiplarda maxfiylik ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchidan, advokatning shartnomaviy, axloqiy va qonuniy sir saqlash majburiyati bo'lsa, ikkinchidan, advokatni sudlarda



guvohlik berishdan ozod qiluvchi isbotlash imtiyozi hisoblanadi. Yakunda, advokatlardan raqamli makonda maxfiylikni ta'minlash uchun zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lish tavsiya beriladi. Albatta bu prinsiplar imperativ xarakterga ega emas va bu prinsiplar muayyan davlatlarning qonunchilig bilan cheklanishi mumkin. Shuningdek, YeI tomonidan qabul qilingan GDPR (Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti) ham analiz qilindi. Ushbu hujjat shaxslarning ma'lumotlarini maxfiyligini ta'minlash borasidagi umumiy qoida bo'lib, uning tarkibiga yuridik shaxslar hisoblamish korxon va tashkilotlar (shu jumladan advokatlar ham) kiradi. Ushbu subyektlarga qonun bo'yicha o'z mijozlarining ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni shifrlash va psevdonimlashtirish kabi texnik choralarini qo'llash talab etila boshlandi. Buning ustiga, agarda ko'p moqdorda mijozlar ma'lumotlarini yangilashmoqchi bo'lganlarida advokatlik firmalariga tegishli shaxslarni chaqirish maslahati keltirilgan. Qonunning oxirgi qismlarida agarda advokatlik firmalari yoki tashkilotlari o'z mijozlarining ma'lumotlari sizib chiqqanini bilgan taqdirda rarahol tegishli organlarga va o'ta jiddiy holatlarda mijozlarning

o'zlariga xabardor qilishi lozimligi aytilgan.

O'zbekiston qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalambor O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitusiyasidan boshlashimiz lozim. 2023-yil 30-aprel qabul qilingan bosh Qomusdan tahlilning boshlanishini asosiy sababi bu albatta aynan Advokatura bo'limining qo'shilishidir. Advokatlik siri haqida gap ketmagan bo'lsada, 141-142-moddalarda advokatura insitutining faoliyati konstitutsiya darajasida mustahkamlandi va bu advokatura institutining O'zbekiston qonunchiligidagi yangi rivojlanish bosqichini ochib berdi.<sup>1</sup> Bevosita advokatlik siri haqida "Advokatura to'g'risida" gi O'RQ 349-I-son qonunning 7-moddasida advokat o'z professional faoliyatida doimo advokatlik siri va advokatlik qasamyodiga amal qilishi lozimligi keltirilgan. Shuningdek, qonunning 9-moddasi advokatlik siriga tegishli bo'lib, unda advokat, advokat yordamchisi, advokat stajyori, advokatlar byurolari, hay'atlari va firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo'lmish ma'lumotlarni oshkor etishi va bu ma'lumotlardan o'z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida foydalanishi man etiladi va



bunga amal qilmaslik qonunning 14-moddasiga ko'ra intizomiy javobgarlikga olib kelishi mumkin yoki 15-moddadagi tegishli tartibga ko'ra litsenziyasini to'xtatilishiga olib kelishi mumkin.<sup>2</sup> “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ 263-son qaror advokatura sohasini raqamli muhitda faoliyatini tartibga soluvchi hujjat xisoblanadi. Ushbu hujjatning 3-bandida advokatura, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi yo'lga qo'yilishi, bundan qonun doirasida muhofaza etiluvchi sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar istisno ekanligi keltirilgan. Qarorning 5-bobida “Yuridik yordam” axborot tizimining boshqa axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan integratsiya qilinishi, uning uzluksiz ishlashi, axborot xavfsizligi ta'minlanishi hamda advokatlik siri oshkor etilmasligini ta'minlash uchun mas'ul organ sifatida **Adliya vazirligiga** yuklatildi. Buning ustiga, Adliya vazirligi Advokatlar palatasi bilan birgalikda 2022-yil 1-noyabrga qadar “Yuridik yordam” axborot tizimi joriy etilishi munosabati bilan advokatlarning kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirish dasturlariga advokatlarning raqamli

savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish masalalarini kiritish choralari ko'rishi lozimligi keltirilgan, ya'ni advokatlar tomonidan texnik xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ularga zaruriy bilim va ko'nikmalar o'qitila boshlandi. Izlanishdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'shimcha tarzda 3 ta davlat: Estoniya, Germaniya va AQSH qonunchiliklari ham tahlil qildi va taqqoslama jadval tuzildi.



Taqqoslash mezonlari	O'zbekiston	Estoniya	Germaniya	AQSH
<b>Asosiy qonuniy hujjatlar</b>	Konstitutsiya (31, 142-m), "Advokatura to'g'risida"gi Qonun, PQ-263-sonli qaror	Advokatlar assotsiatsiyasi ning Etika kodeksi (1999)	BRAO (§ 31a) va Germaniya Jinoiy kodeksi (§ 203)	Privacy Protection Act (1980) va ABA Model qoidalari
<b>Raqamli tizim va aloqa</b>	"Yuridik yordam" tizimi, QR-kodli elektron orderlar va elektron muloqot kabineti	Firma egasi elektron ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishni ta'minlashi shart (§ 11)	Majburiy xavfsiz elektron advokat qutisi (beA) tizimi (§ 31a BRAO)	Texnologik o'zgarishlarga moslangan professional etika normalari (20/20 Komissiyasi)
<b>Advokatlik sirining qamrovi</b>	Murojaat fakti, maslahat mohiyati va suhbatdagi barcha masalalar	Kasbiy sir ma'lumot manbasini ham o'z ichiga oladi va vaqt bilan chegaralanmaydi	Kasbiy sir qat'iy jinoiy himoyalangan an maxfiy ma'lumot hisoblanadi	Advokatning "ish mahsuli" materiallarini ng daxlsizligi qonun bilan kafolatlangan
<b>Raqamli tizimda xavfsizlik uchun mas'ullik</b>	Adliya vazirligi axborot xavfsizligi va sir saqlanishi uchun mas'ul davlat organi etib belgilangan	Advokatlik firmasi egasi xodimlar va yordamchilari ning sir saqlashi uchun shaxsan mas'uldir	Xodimlar yoki yordamchilar sirni buzsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi (§ 203 StGB)	Hukumat organlariga advokatdagi hujjatlarni tintuv qilish yoki tortib olish taqiqlanadi
<b>Javobgarlik choralarini</b>	Intizomiy choralari, litsenziyani to'xtatib turish yoki tugatish	Etika tribunali tomonidan intizomiy jazolar qo'llanilishi (§ 2)	Bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi (§ 203 StGB)	Noqonuniy tintuv uchun zarar bo'yicha fuqarolik da'vosi huquqi
				beriladi



Buning ustiga, advokatlik institutining raqamlashib borayotgan davrida advokatlik sirining qanday tartibga solish haqida turli xil olimlar ham o'z izlanishlari olib borgan. Jumaldan, Lyublyana universiteti professori Aleš Završnik ushbu masalada olib borgan o'z ishida raqamlashtirish nafaqat ish jarayonini yengillashtirishini, balkim sud protsessining mohiyatini ham o'zgartirishiga olib kelishini, sudlar va advokatlar qayta jinoyat sodir etish xavfini baholash (masalan, COMPAS tizimi) kabi algoritmik vositalardan foydalanishini ijobiy baholagan, biroq, olimning fikricha raqamli muhitda advokatlik sirini saqlash yangi kiber-tahdidlar bilan to'qnash kelmoqda, ya'ni ko'plab davlatlarning razvedka organlari tomonidan internet tarmoqlari foydalanuvchilarining ma'lumotlari va harakatlarining kuzatilishi advokat va mijoz o'rtasidagi muloqot maxfiyligiga jiddiy xavf tug'dirishiga hamda shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzulishiga olib kelishi mumkin.<sup>3</sup> Koops esa o'z tadqiqotida advokatura institutining raqamlashtirilishi (E-Advocacy) atamasi bilan bevosita ish yuritish tizimi sifatida ta'riflamagan bo'lsa-da, raqamli texnologiyalar sharoitida huquqiy munosabatlar va

2) Qonun va normalar: Advokatlik etikasining an'anaviy

maxfiylikning o'zgarishi haqida tizimli tahlil qilgan. Uning fikricha, hozirgi axborot dunyosida shaxslar, shu jumladan advokat mijozlari ma'lumotlar bazalarida aks etuvchi "raqamli persona" (digital persona) sifatida namoyon bo'lmoqda hamda bu kontekstining yo'qolishiga sababchi bo'lmoqda va bulutli tizimlardagi nazorat fuqarolarda doimiy nazorat ostida ekanlik hissini uyg'otadi hamda mijoz va advokat o'rtasidagi muloqotni qiyinlashtiradi.<sup>4</sup> Koops tomonidan yozilgan yana bir maqolada u bevosita raqamli advokaturaga ta'rid bergan hamda uni ATK ning bir turi deb baholagan. Koops raqamli advokaturani tartibga solish uchun 4 asosiy modelni (Lessig bo'yicha) keltirilgan: qonun, ijtimoiy normalar, bozor va arxitektura. Olim E-Advocacy tizimida sir saqlash majburiyatini ta'minlashda bu modalitetlar ishlashini quyidagicha ta'ruflagan:

1) Arxitektura (Kod): Tizimning o'ziga joylangan shifrlash vositalari (E2EE) va xavfsizlik protokollari qonuniy majburiyatlarni texnologik darajada amalga oshiradi. Dasturiy ta'minotning tuzilishi sir saqlashni ta'minlovchi regulyatorga aylanadi.

normalari raqamli muhitga moslashtirilishi va qonuniy javobgarlik



belgilanishi shart.

Shuningdek, olim advokatlik siri mavjud tizimlar doimiy tartibda yangilanishi lozimligini hamda har qanday yangi raqamli vosita tizimga kiritilishidan oldin yaxshilab o'rganishi lozimligini keltirgan.<sup>5</sup> Matthew

N. va boshqalar tomonidan olib borilgan ishda advokatura institutining raqamlashtirilishi jarayonida advokatlik sirini saqlash masalasi zamonaviy kundalik vazifalarni o'z zimmasiga olmoqda hamda olimlarning fikricha bu advokatlarning faoliyatini tezlashtirmoqda hamda yengillashtirmoqda hamda tegishli tartibda mijozlarning sirini saqlash bo'yicha axloqiy majburiyatlar yangi pog'onoga ko'tarmoqda.<sup>6</sup> Yana biri olim

Svetlana Gennadyevnaning fikricha raqamlashtirish jarayoni yuridik amaliyotga zamonaviy usullarni, jumladan, mashinali o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va prediktiv (bashoratli) analitikani olib kirganini hamda raqamli tizimlar negizida mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari szib chiqishi bilan bogliq bo'lgan muammolar

uchun muayyan javobgarlik belgilanishi zarurligi keltirilgan.<sup>7</sup> Mahalliy olimlardan Raximberdiyev Rustambek ham

ushbu sohani tatbiq etdi hamda raqamli advokatura — bu yuridik xizmatlarni taqdim etish, shartnomalar tuzish, hujjatlarni tahlil qilish va boshqa vazifalarni bajarishda yordam beradigan texnologik vositalar (AI, bulutli texnologiyalar, blokcheyn) majmuasi ta'rifini keltirgan. Buning ustiga, LegalTech vositalarini joriy etish advokatlarning ish unumdorligini 35-50% gacha oshirishi, xatolarni huquqiy amaliyotning eng dolzarb muammolarini hujjatlarni avtomatlashtirish dasturlari, yuridik ma'lumotlar bazasi, CRM tizimlari va elektron sud tizimlari asosiy vositalar ekanligi ko'rsatilgan. Qo'shimcha tarzda, olim O'zbekiston qonunchiligidagi AKT lar (E-Advokat va "Huquqiy Yordam") tahlil qilingan hamda kelajak uchun istiqbolli loyihalar taqdim etilgan.<sup>8</sup>

Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarga keladigan bo'lsak, yuqoridagi tahlilga ko'ra, PQ 263-son qarorga muvofiq raqamli tizimlar xavsizligi uchun Adliya vazirligi mas'ul xisoblanadi. Biroq, Germaniya JKning 203-moddasidan farqli ravishda, advokatlik tuzilmasiga raqamli xizmat ko'rsatuvchi tashqi IT kompaniyalar va bulutli servis operatorlarining, ya'ni uchinchi shaxslarning advokatlik sirini buzganlik uchun maxsus (jinoiy)



javobgarligi hali aniq kodifikatsiya qilinmagan va bu kelajakda muayyan noaniqliklarga sababchi bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ravishda, "Advokatura to'g'risida" gi qonunda advokatlik siriga "suhbatdagi barcha masalalar"ni kiradi, ammo CCBE qo'llanmasida keltirilgan metadata — hujjat yaratilgan vaqti, muallifi va tahrirlar tarixi kabi raqamli izlarning advokatlik siri sifatidagi maqomi va ularni "tozalash" majburiyati qonunda keltirilmagan, zero O'RQ 1003-son qonunga muvofiq raqamli dalil termini turli xil qonunchiliklarga kiritilgan<sup>9</sup> va advokatura to'g'risidagi qonunchilikda ushbu jihatning yoritilmasligi turli xil bo'shliqlarga sababchi bo'lish ehtimoli mavjud. Shuningdek, SI vositalarning javobgarlik holatlari xalqaro qonunchiliklarda allaqachon qonunchilik muhokamasiga kiritilgan, biroq O'zbekiston qonunchiligida hali hamon SI ning ishtirokida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi mavhum bo'lib qolmada. Bu ham o'z navbatida bir nechta huquqiy konsensuslarga olib kelishi mumkin.

Xalqaro huquqiy tajribaning O'zbekiston qonunchiligida qo'llanilishi turli xil salbiy va ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, ijobiy oqibatlardan boshlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bevosita xalqaro huquqning

umume'tirof etilgan prinsiplari ustuvorligi va xalqaro shartnomalar milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi ekanligi belgilangan. Shu tartibda IBA (Xalqaro advokatlar assosatsiyasi) prinsiplarini tatbiq etish advokatlik institutining mustaqilligini oshiradi va mijozlar uchun odil sudlovga erishishning xalqaro standartlarini kafolatlaydi. Shuningdek, raqamli shaffoflik va samaradorlikni oshirish maqsadida PQ 263-son qaror negizida vujudga kelgan "Yuridik yordam" tizimi YeI ning CCBE qo'llanmasidagi texnik maslahatlarni, shu jumladan meta data tahlili kabi tizimlarni yo'lga qo'ysa bo'lajak kiberhujumlarni oldini olishga va undan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni maksimal cheklashga yordam berishi mumkin. Qo'shimcha ravishda, Germaniya tajribasidek (StGB 203-modda) O'zbekiston qonunchiligiga ham advokat sirini buzganlik uchun javobgarlik muayyan sirni buzgan shaxsga emas, balkim barchaga taaluqli bo'lishi advokatlar va boshqa tarkib vakillarining mas'uliyatini oshirishi mumkin. Oxirida shuni ta'kidlash lozimki, GDPR kabi xalqaro ma'lumotlarni himoya qilish standartlariga moslashtirish O'zbekiston qonunchiligi uchun foydali bo'lishi mumkin, zero buning natijasida xorijiy investorlarining va



fuqarolarining qonunchilikga bo'lgan ishonchi ortadi va ularning orasida mavqeyi oshadi. Shu o'rinda kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida ham gapiradigan bo'lsak, birinchi galda albatta bu xalqaro huquq normalarning milliy qonunchilikga zid kelib qolishidir. Jumladan, transmilliy nizolar kelib chiqadigan bo'lsa, xalqaro normalar mezoni bo'yicha sirni oshkor qilish talab etilsa, biroq milliy qonunchilik bunga to'sqinlik qilishi va nizolarga sababchi bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ko'nikmalarning yetarli darajada emasligi xisoblanadi. CCBA kabi xalqaro standartlar advokatlardan yuksak texnologik salohiyatni talab qiladi va haqiqatni tan olish lozimki, barcha mutaxassislar ushbu ko'nikmalarni muayyan sabablarga ko'ra (masalan, yosh chegarasining yuqori bo'lishi va h.k) kerakli darajada egalla olishmaydi va bu esa o'z navbatida ehtiyotsizlik natijasida advokatlik sirini buzulishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, kichik advokatlik kompaniyalari xalqaro standartlarga mos kibrxavfsizlik tizimlarini joriy etish uchun ko'p miqdorda mablag' sarflashi ularni moliyaviy jihatdan og'ir ahvolga olib qo'yadi. Davlat subsidiyalarisiz kichik tashkilotlar yetarli kibrxavfsizlik tizimlarini o'rnatishga moliyaviy jihatdan qurbi yetmasligi mumkin.

Agarda, davlat kichik advokatlik subyektlariga kibrxavfsizlik masalasida moddiy ko'mak bersa, advokatlarni texnik ko'nikmalarini qaytatdan o'qitsa hamda ularning maqomini xalqaro standartlarga ko'ra mustahkamlasa ushbu salbiy oqibatlarning oldi olinishi hamda elektron orderlar va masofaviy yuridik xizmat ko'rsatish sohasidagi litsenziya talablarini tartibga solishda ko'maklashishi mumkin.

## Muhokama (DISCUSSION)

O'tkazilgan tadqiqot natijalar muvozanatli huquqiy tartibga solish modellarini ishlab chiqish uchun qo'shimcha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, advokatura institutining raqamlashtirilishi (E-Advocacy) shunchaki texnik yangilanish emas, balkim butun advokatlik sohasi, shu jumladan advokatlik siri institutining huquqiy tabiatini tubdan o'zgartiruvchi transformatsiyadir. Maqolada ko'rib chiqilgan xalqaro tajriba va milliy qonunchilik tahlili quyidagi fundamental xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

**Birinchiidan,** O'zbekiston qonunchiligida advokatlik siri tushunchasini raqamli makon talablaridan kelib chiqib kengaytirish zarurati mavjud. CCBE tavsiyalariga muvofiq, nafaqat suhbat mazmuni,



balki elektron hujjatlarning metadata (yashirin ma'lumotlar) qismi ham advokatlik siri sifatida qonun bilan himoyalaniishi va ularni "tozalash"

majburiyati advokatlar zimmasiga yuklanishi lozim. Bu o'z navbatida ehtiyotsizlik oqibatida ma'lumotlar sizib chiqishining oldini oladi.

**Ikkinchidan,** "Yuridik yordam" axborot tizimining xavfsizligi uchun mas'ul organ sifatida Adliya vazirligi belgilangan bo'lsa-da, Germaniya tajribasidan (StGB 203-modda) kelib chiqib, tashqi IT-provayderlar va bulutli xizmat operatorlarining advokatlik sirini buzganlik uchun jinoiy javobgarligini qonuniy mustahkamlash lozim. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliq (legal vacuum) uchinchi shaxslar tomonidan sirlarning oshkor etilishi uchun javobgarlik masalasini mavhum qoldirmoqda.

**Uchinchidan,** raqamli advokaturani tartibga solishda L.Lessig va B.Koops tomonidan ilgari surilgan "Arxitektura (Kod)" modelini tatbiq etish strategik ahamiyatga ega. Ya'ni, advokatlik siri nafaqat qonun bilan, balki tizimning o'ziga joylangan oxirigacha shifrlash (E2EE) vositalari orqali texnik darajada himoyalaniishi shart. Bu mijozlarda bulutli tizimlardagi "doimiy nazorat" hissini kamaytirib, advokatga bo'lgan

ishonchni mustahkamlaydi hamda bir tomondan elektron orderlar va masofaviy yuridik xizmat ko'rsatish sohasidagi litsenziya talablarini tartibga solishda qo'llanishi mumkin.

**To'rtinchidan,** xalqaro standartlarni (GDPR, IBA) implementatsiya qilishda O'zbekistondagi advokatlarning ko'nikmalar yetishmovchiligi va kichik advokatlik tuzilmalarining moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Maqolada taklif etilganidek, davlat tomonidan kiberxavfsizlik tizimlarini o'rnatish uchun subsidiyalar ajratilishi va advokatlarning raqamli gigiyena bo'yicha malakasini doimiy oshirib borish salbiy oqibatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, E-Advocacy tizimining samarali ishlashi uchun O'zbekiston qonunchiligi AQSHning "hukumat aralashuvidan himoya" va Estoniyaning "vaqt bilan chegaralanmagan sir" modellarini integratsiya qilishi lozim. Faqatgina huquqiy normalar va texnologik himoya (Code as Law) uyg'unlashgan taqdirdagina, raqamlashtirish jarayoni advokatlik institutining tarixiy tayanchi bo'lmish maxfiylik tamoyiliga zarar yetkazmasdan rivojlanishi mumkin.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

### I. Xalqaro tashkilotlar hujjatlari va standartlari

1. CCBE (Council of Bars and Law Societies of Europe). Recommendations on the protection of attorney-client privilege in the context of electronic communication.

[https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality\\_distribution/public/documents/IT\\_LAW/ITL\\_Guides\\_recommendations/EN\\_ITL\\_20160520\\_CCBE\\_Gui](https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality_distribution/public/documents/IT_LAW/ITL_Guides_recommendations/EN_ITL_20160520_CCBE_Gui)

[dance\\_on\\_Improving\\_the\\_IT\\_Security\\_of\\_Lawyers\\_Against\\_Unlawful\\_Surveillance.pdf](#)

2. IBA (International Bar Association). International Principles on Conduct for the Legal Profession: Principle 4 – Confidentiality/Professional secrecy.

[https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/10/IBA\\_International\\_Principles\\_on\\_Conduct\\_for\\_the\\_legal\\_prof.pdf](https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/10/IBA_International_Principles_on_Conduct_for_the_legal_prof.pdf)

3. European Union. General Data Protection Regulation (GDPR): Regulation on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>

### II. Fundamental ilmiy ishlar va xalqaro va milliy olimlar tadqiqotlari

1. Kooops, B. J. (2010). Law, technology, and shifting power relations. *Berkeley Technology Law Journal*, 25(2), 973–1035. <https://doi.org/10.15779/Z38M046>

2. Kooops, B. J. (2010). Ten dimensions of technology regulation: Finding your bearings in the research space of an emerging discipline. In M. E. A. Goodwin, B. J. Kooops, & R. E. Leenes (Eds.), *Dimensions of technology regulation* (pp. 309–324). Wolf Legal Publishers.

3. Raximberdiyev, R. K. (2025). LegalTech vositalarining advokatlik faoliyatida ish samaradorligini oshirishdagi ro'li [The role of LegalTech tools in increasing the efficiency of legal practice]. *Yangi O'zbekiston Talabalari Axborotnomasi*, 3(11). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17697003>

4. Sadiku, M. N. O., Ajayi, S. A., & Sadiku, J. O. (2025). Artificial intelligence in legal practice: Opportunities, challenges, and future directions. *Journal of Engineering Research and Reports*, 27(4), 68–80. <https://doi.org/10.9734/jerr/2025/v27i41456>



5. Sarantseva, S. G. (2025). *Iskusstvennyy intellekt v yurisprudentsii: Sovremennyye metody i integratsiya s pravovymi teoriyami* [Artificial intelligence in jurisprudence: Modern methods and integration with legal theories]. *Zakon i Pravo*, (6), 188–192. <https://doi.org/10.24412/2073-3313-2025-6-188-192>

6. Završnik, A. (2019). Algorithmic justice: Algorithms and big data in criminal justice settings. *European Journal of Criminology*, 18(5), 623–642. <https://doi.org/10.1177/1477370819876762>

### III. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi tahriri (31, 141-142-moddalar). <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2. O‘zbekiston Respublikasining "Advokatura to‘g‘risida"gi Qonuni. 349-I-son (7, 9, 14-15-moddalar). <https://lex.uz/ru/docs/-54503?ONDATE=20.01.2001>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-263-son: Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2022-yil 30-may). <https://lex.uz/uz/docs/-6039334>

### IV. XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGI

1. Germany. Federal Lawyers' Act (BRAO § 31a) and German Criminal Code (StGB § 203) – Criminal liability for the violation of professional secrets by third parties/IT providers. [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_stgb/englisch\\_stgb.html](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html)

2. Estonia. Code of Ethics of the Estonian Bar Association (1999) – The principle of unlimited professional secrecy in time. [https://diacomet.eu/data\\_base/the-code-of-conduct-of-estonian-bar-association-advokatuuri-eetikakoodeks/](https://diacomet.eu/data_base/the-code-of-conduct-of-estonian-bar-association-advokatuuri-eetikakoodeks/)

3. USA. Privacy Protection Act (1980) and ABA Model Rules – Protection of attorney's "work product" from government search and seizure. <https://www.justice.gov/archives/usam/criminal-resource-manual-661-privacy-protection-act-1980>